

TURKIYZABON MILLIY MATBUOTDA “GULISTON” TARJIMASI MASALASI

*Ruzimbayev Behzod Saparbayevich, UrDU mustaqil
izlanuvchisi*

ВОПРОС ПЕРЕВОДА СЛОВА «ГУЛИСТОН» В ТУРЕЦКОЯЗЫЧНОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕССЕ

*Рузимбаев Бехзод Сапарбаевич, независимый
исследователь УрГУ*

THE ISSUE OF TRANSLATING THE WORD “GULISTON” IN THE TURKISH NATIONAL PRESS

*Ruzimbaev Bekhzod Saparbaevich, independent researcher at
Urgench State University*

Annotatsiya: Maqolada turkiy xalqlar milliy nashriga aylanib bilgan “Sho‘ro” jurnalida Sa‘diyning “Guliston” asari tarjimasini masalalari yoritilish tarixi tahlil qilinadi. “Sho‘ro” turkiyzabon matbuotda tarjima nazariyasiga oid maqolalar va mulohazalar berilgan ilk ommaviy axborot vositasi sifatida ham e‘tibarga molikdir.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, tarjima nazariyasi, Sa‘diy “Guliston”i, milliy matbuot, turkiyzabon matbuot

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое повествование, окружающее перевод шедевра Саади «Гюлистан», представленное на страницах журнала «Шуро», значимого издания среди тюркских народов. Примечательно, что «Шуро» является пионером в сфере средств массовой информации, первым распространив статьи и критику теории перевода в тюркоязычной прессе.


Ключевые слова: художественный перевод, теория перевода, «Гюлистан» Саади, национальная пресса, тюркоязычная пресса.

Abstract: This article delves into the historical narrative surrounding the translation of Saadi's masterpiece "Gulistan" as covered in the pages of "Shoro" magazine, a significant publication among Turkic peoples. Notably, "Shoro" stands as a pioneer in the realm of mass media, being the first to disseminate articles and critiques on translation theory within the Turkish-language press.

Key words: literary translation, translation theory, Saadi's "Gulistan", national press, turkic-language press.

Kirish. IX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O‘rta Osiyo va Rossiya tarkibidagi boshqa turkiy xalqlarning ona tillarida kitoblar nashr qilina boshlandi, vaqtli matbuot chiqarildi. Natijada ko‘pgina tarjima asarlari nashr etildi,

gazeta-jurnallarda badiiy tarjima namunalari e‘lon qilindi. Shunday bo‘lishiga qaramay, mahalliy matbuotda badiiy tarjima nazariyasiga oid fikrlar bilan bahs etuvchi maqolalar bosilmagan. “Badiiy tarjima prinsiplari, tarjimonlar va tarjima asarlari



bruzimboyev@gmail.com

to'g'risida maqolalar e'lon qilgan birdan-bir matbuot 1908-1917-yillar orasida Orenburgda chiqib turgan "Sho'ro" jurnali edi" [1]. Bu jurnal o'zini Rossiyadagi turkiy xalqlar uchun umumiy deb e'lon qilgan. U O'rta Osiyoda ham keng tarqalib, mahalliy ziyolilari orasida juda ko'p obunachilari, muxbirlari bo'lgan. Jurnal Turkistonning o'tmishi, hozirgi hayoti haqida o'z sahifalarida bir necha maqolalar berib, uning madaniy turmushida bo'lib turgan yangiliklarni aks ettirib borgan. "Sho'ro" jurnalining Turkiston jadidlari ijodi va faoliyatiga ta'siri ancha kuchli bo'lgani shubhasiz. Buni jurnal sahifalarida e'lon qilingan Turkiston ziyolilari qalamlariga mansub maqolalar, badiiy asarlar, xabar va lavhalar orqali ham ko'rish mumkin. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Bahrom Davlatshoyev, Furqat kabi ijodkorlar qalamiga mansub asarlardan boshqa millatdosh va maslakdosh aynan "Sho'ro" sahifalari orqali bahramand bo'lganlar.

Adabiyotlar tahlili va metod. Ushbu maqolada mavzuga doir quyidagi adabiyotlar tahlilga tortildi va ularning mulohazalari asosida mavzu yechimini amalga oshirishga harakat qilindi. Комилов Н. Мухаммадризо Огахийнинг таржимонлик маҳорати: Филол. фанлари номз...дисс... – Тошкент: 1970 yilda amalga oshirgan tadqiqi, Ханнанова Г.М. К истории переводов "Тулистана" Саади на татарский язык (// Грамота, 2014. № 9 (39): в 2-х ч. Ч. I), va yana Ханнанова Г.М.ning К истории переводов "Тулистана" Саади на татарский язык (// Грамота, 2014) ilmiy ishlari, O. Idrisining "Guliston" tarjumasini munosabati ila (// Sho'ro. 1914. № 12.) maqolasi, N.Badridinning "Guliston" tarjimasini munosabati ila (// Sho'ro. 1914. № 12.) nomli maqolasi hamda S.Ramiyev, Sodiq, Zavqiy kabi allomalarning bu boradagi tadqiqotlariga murojaat qilindi. Maqolada qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Muhokama. Jurnal sahifalarida "Guliston" tarjimasiga oid munozaralar tarixi va tadrijiga ilmiy jamoatchilikda asosan ikki ishda e'tibor qaratilgan. Shulardan biri N.Komilovning "Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati" nomli nomzodlik dissertatsiyasidir.

Yana biri esa G.M.Xannanovanning "Sa'diy "Guliston"ining tatar tiliga tarjimalari tarixidan" [2] maqolasidir.

Har ikkala manbada bayon qilingan mavzuga daxldor voqealar tajriji quyidagicha:

Jurnalning 1914-yil 10-sonida "Tarjima qilarga tilovchi" imzosi bilan Shayx Sa'diy "Guliston"i birinchi hikoyasining tarjimasini bosiladi. Mutarajim o'z namunasining oxirida "Guliston"ni ushbu ravishda tarjima qilsam yararmi yoki boshqa bir uslub ixtiyor qilur-akerakmi?" – deb jurnalxonlar va jurnal tahririyatidan maslahat so'raydi. "Tarjima qilur'ga tilovchi" davom etadi: "Ushbu xususida "Sho'ro" tarafidan hamda o'qig'uvchilar tarafidan kengash va javob so'rim. O'zim yuqoridag'i ulub birla tarjuma etmakchi bo'lam. Lekin oyati karim va hadisi sharifalar yoxud zarbulmasal, forsiy va arabiy she'rlar uchrag'anda o'z iboratlari birla yozub-da har birining tarjumarini qavsayn orasida so'ylab ketmakchi bo'lam". Shu tariqa 1914-yilda "Guliston" tarjimasini Muhammadsaid Ahmadjalilov tomonidan amalga oshirildi. Uning maqolalari va Sharq mualliflari asarlaridan tarjimalarini o'sha davrdagi tatar davriy nashrlari sahifalarida tez-tez uchratish mumkin. Biroq, uning o'zi haqida deyarli hech qanday ma'lumot yo'q. U haqida faqat Petropavlovsk (hozirgi Qozog'iston Respublikasi) shahrida yashab, madrasada mudarrislik qilgan, Olimjon Idrisiy bilan tanish bo'lganini bilamiz. Tarjimalari asosan "Sho'ro" jurnalida chop etilgan. U o'zining ishlarga "Muhammadsaid Ahmadjalilov", "S.M" "M.S.", "A.S.M.J.", "M.S.A.J.", "Muhammeasaid Gabduljalilov" kabi imzolarni chekkan. Uning mutarajimlik faoliyati Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy kabi sharq adabiyoti klassiklari she'rlarini "Sho'ro" jurnali sahifalarida chop etishga yordam berdi [3].

"Guliston"ning Muhammadsaid Ahmadjalilov tomonidan qilingan tarjima namunalari 1914-yil davomida nashr etilgan. Mutarajim o'z o'quvchilaridan tarjimalarini baholashni so'raydi. Tez orada jurnal muharrirlariga sharhlar kela boshlaydi. Ular orasida publitsist va jamoat arbobi Olimjon Idrisiyning taqrizlari ham bor edi [4].

Shuningdek, Najib Badriddin [5], tatar shoiri Said Ramiev [6], Sodiq taxallusi bilan ijod qilgan din arbobi va shoir Muhammad Sodiq Imonquli [7] va Zavqiy taxallusi bilan ijod qilgan Abduraxmon Sa'diy [8] taqrizlari bor edi. Ushbu sharhlarda tarjima turlari va aynan "Guliston" tarjimasini uchun munosib tamoyillar haqida so'z yuritilib, M.Axmadjalilov tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tuzatish bo'yicha tavsiyalar berib borilgan. Shu bilan birga, maktub mualliflari ham ayrim parchalar tarjimasining o'ziga xos variantlarini taklif qiladilar. Muhimi, bularning barcha adabiy bahslar shaklida kechgan. Bu haqda N.Komilov "Shu munosabat bilan jurnalda Olimjon al-Idrisiy, Najib binni Badriddin, Said Ramiev va tarjimonning o'zi tomonidan bir necha maqolalar e'lon qilinadi. Mualliflar "Guliston" tarjimasini usullari haqida fikr bildirish bilan birga o'zlari qilgan tarjima namunalarini ham ilova qiladilar. N.Komilov "Baho va munozara asnosida badiiy tarjima nazariy masalalari o'rta tashlanadi" – deya tavsif beradi. Ko'rinadiki, bu borada Muhammad Sodiq Imonquli va Abdurahmon Sa'diy nazarda chetda qolgan.

Jurnalning 1914-yil 12-sonida Olimjon Idrisiyning "Guliston" tarjimasini munosabati-la" degan maqolasi bosilib chiqadi. U Sa'diy kabi ulug' donishmandning dunyoga mashhur asarini turkiy tilga o'girish zo'r tahsinga sazovor ekanligini alohida ta'kidlab, mutarjimni bu tashabbus bilan tabriklaydi.

So'ngra uning 10-sonida e'lon qilgan namunasi to'g'risida o'z fikrlarini bayon qiladi. Uningcha "...bir asarni bir tildan ikkinchi tilga ovdarg'anda tarjimaning muvaffaqiyatli chiquvining eng birinchi sharti – asarning o'ziningina o'qug'on vaqtda uning ikkinchi bir tildan tarjima ekanligini anglashilmaslik darajada bo'luidir"[4].

Muallif tarjima tilini sof turkiylashtirish, asl nusxaning faqat leksikasiningina emas, balki butun grammatik xususiyatlarini va uslubini ona tili qonunlariga batamom bo'ysundirishni xohlaydi. Tarjima tilida asl nusxa tilining uslubi sezilmasligi kerak, vaholanki, namuna "turkcha so'zlar bila forsiycha yozilgan". Olimjon Idrisiy

ana shunday sof turkiy shevada tarjima bo'lishi uchun mutarjimga "asarning aslina zo'r o'zgarish beruv sharti bila ba'zi bir kalimalar, hatto, jumlar-da orturarga hamda jumlarining va kalimalarning o'rinlarida almashtirarg'a kerak" – deb maslahat beradi.

Olimjon Idrisiy originalni tamoman turkiylantirish uchun unga erkin yondashishni, "aslina zo'r o'zgarish" berish kerakligini yaxshi tushunadi. Ammo u asarning g'oyaviy yo'nalishi, mazmunini o'zgartirishni emas, shu mazmunni sodda qilib, keng tushuntirishni nazarda tutadi. Keltirilgan tarjima namunasida maqola avtorini o'z fikrini amalda ko'rsatgan. Biroq, uning jumlar, kalimalar kiritish yo'li bilan original tilining uslubini o'zgartirishga asoslangan prinsipi asos e'tibori bilan asarning umumiy uslubini o'zgartirib, badiiy qiymati, ta'sirni bo'shashtirishga, demakki, asar g'oyasiga putur yetkazishga olib borar edi. She'riy parchalarni, mumkin bo'lsa, biror shoirga she'r bilan tarjima qildirish, agar buning iloji bulmasa, aslini tarjimada keltirib, nasriy tafsiriy mazmunini qavsda borish kerak, deb uqtiradi u.

Jurnalning shu sonida Najib binni Badriddinning ham maqolasi e'lon qilingan. Najib afandi, dastavval, Sa'diy asarlarining tarjima bo'lish-bo'lmasligi masalasiga to'xtaydi. U jurnal redaksiyasining: "Sa'diy asarlarining qiymatin anglar uchun mutlaqo forsiycha bilurga kerak. Tarjimalari orqaligina alarni loyiqicha tanub bo'lmiy. Chunki har tilning o'zina xos bir qadar mazitlari bo'lib, tarjima qiling'ach, ul mazitlar yo'g'ola" degan fikrni va "Tarjima qilurga tilovchi"ning "Oyati karima va hadisi sharifalar yoxud zarbulmasallar, forsiy va arabiy she'rlar uchrag'anda o'z iboratlari birla yozib-da har birining tarjimalarini qavsayn orasinda so'ylab ketmakchi bo'lam. Chunki onlar turkiyga tarjima qilinsalar fasohat va balog'atlari va muhassinoti ma'ngaviyalari yo'g'alur deb qo'rqam" [9] – degan mulohazalarini keltiradi-yu, biroq bu masalaga doir o'z fikrini aniq bayon etmaydi. Shu sitatalardan keyin: "Biyik motor til bilan yozilg'on kitobining tarjimasida, albatta, mumkin qadar lazozatli va durust bo'lurga tiyish" degan jumlanini

keltiradi-da, tarjimon namunasining kamchiliklarini ko'rsatishga kirishadi.

Najib afandining badiiy tarjima prinsiplariga bo'lgan qarashlari Olimjon Idrisiydan farq qiladi. Agar Olimjon Idrisiy "asarning aslina zo'r o'zgarish" kiritin, originalga nisbatan o'zni erkin tutib, voqealar tasvirini istagancha cho'zishni yoqlab chiqsa, Najib afandi qo'shish va kamaytirish singari o'zboshimchalikka qarshi turib, mumkin qadar asarning ruhini saqlashni talab qiladi: "Bir olamning asarin tarjima qilg'onda mumkin qadar asarning ruhini saqlarg'a, anga chetdan ortturmasga va kamaytmasga kerak. U asar ruhi deganda faqat uning goyaviy-mazmunini emas, shu bilan birga badiiy uslubini xam ma'lum miqdorga ko'zda tutgan bo'lsa kerak-ki, namunadagi o'rinsiz revisha cho'ziltirilgan yoxud chetlan kiritilgan jummalarni tanqid qilgan. U bunday jummalarni "luzumsiz orttiruv" (lozim bo'lmagan orttirma) deb biladi va har bir jumlani "aslga muvofiqroq tarjima" etish kerakligini uqtiradi.

Natijalar. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, Najib binni Badriddin she'riy tekstlarning aslini tarjimada saqlab qolishdan ko'ra, o'quvchiga malol keltiradigan haddan tashqari cho'ziqlikdan qutilish maqsadida faqat ularning yaxshi she'riy tarjimsini, agar bu muyassar bo'lmasa, to'g'ri ma'nosini berish bilan cheklanish kerak, degan mulohazalarini keltirilgan asar tarjimasi borasidagi muhim g'oya deya ta'kidlash o'rinlidir. U asl nusxaga to'g'ri munosabatda bo'lib, haqiqiy mazmuni, bayon tarzini o'zgarishsiz berishi talab qilgani holda tarjima tilining anglashuvli, ixcham bo'lishini ham uqtirib, o'z namunasida bunga amal qiladi.

"Sho'ro" jurnalining shu yil 16-sonida "Tarjima qilarga tilovchi"ning Olimxon Idrisiy taklif etgan usul asosida bajargan yana bir tarjima namunasi bosiladi. Bu ikkinchi namuna ortiq darajada tafsilotlar, turli izoh va sharhlar bilan to'ldirilgan, buning ustiga, she'riy parchalarning asl teksti, kuyli (she'riy) va kuysiz (nasriy) tarjimalari keltirilgan bo'lib, hikoyat behad cho'zib yuborilgan. Sa'diyning g'oyat chuqur ma'noni qisqa, ixcham tarzda tasvirlab beruvchi

ajoyib uslubi o'rnini zeriktiruvchi, badiiy zavqdan mahrum, g'ashga teguvchi mayda-chuyda tushuntirishlar bilan suyultirilgan tarjima egallagan. Bu tarjimadan ko'ra ko'proq "Guliston"ni tushuntirish, izohlash uchun mashq, eksprimentga o'xshab ketadi.

Mazkur ikkinchi namuna ufalik Said Ramievning qattiq tanqidiga uchraydi [10]. Said Ramiev o'z maqolasini badiiy tarjima san'ati to'g'risidagi qarashlarini birma-bir bayon qilish bilan boshlaydi. U haqli ravishda tarjimon muvaffaqiyatining sharti – ikki tilni mukammal bilish deb ta'kidlaydi. Aslning va u tarjima bo'ladigan tilning leksik, grammatik xususiyatlarini bilish badiiy tarjima san'atining "qavoidi avvali"dir. Bugina emas, tarjimon har ikki tilning grammatik qoidalari va uslubiy o'ziga xosliklarini o'zaro solishtira bilishi, ularning bir-biriga nisbatan fazilat va kamchiliklarini nazarda tutib turishi lozim. Maqola muallifi originalning mazmuni bilan birga uning uslubini ham tarjimada aks ettirishni talab qiladi: "Ikkinchi bir tilda yozilg'on asarni o'z tilingga tarjima qilganda ham ma'no, ham tab'i jihatidan durust bo'lib chig'ishina biyik e'tibor qilurg'a kerak". Said Ramiev maqolasining davomida aslni "ham ma'no, ham tab' (uslub) jihatidan" to'g'ri o'girish haqidagi o'z fikrini konkretlashtirib, "hikoyalar albatta hikoya tarzinda" tarjima qilinishini, voqea tasvirini istagancha cho'zib, uning "tami, mazasini butunlay yo'g'otib" tarjima qilishning yaroqsizligini ko'rsatadi. Asl nusxa tilning har bir kalimasi va iboralari o'ziga ma'no jihatdan muvofiq kalima va iboralar bilan ag'darilishi kerak. Bir iborani bir necha so'z bilan ma'nodod qilishning hojati yo'q. Masalan, "Guliston"dagi "Yake az muluk" iborasining to'g'ri tarjimasi "Bir podsho yoki "Podshohlardan birov" bo'ladi, uni qaysidir bir podshoh tarzida ta'bir etish (namunadagicha) noqulaydir. Said Ramiev, shuningdek, she'rlarning tarjimasi albatta she'riy bo'lishin qat'iy qilib qo'yadi va bu ishni shoirlarga topshirish kerak, she'riy tarjimaning qanday bo'lishi shoirga bog'liq, deydi. U mutarjimning ikkinchi namunasi tahliliga o'tib, undagi ma'no va uslub g'alizliklarini, kuyli tarjimalarining xatoligini ko'rsatish bilan, tarjimani butunlay

yaroqsiz deb topadi. Said Ramievning keskin tanqidi qattiq ta'sir etadi shekilli, tarjimon jurnalning 1914-yil 22,23,24- sonlari va 1915-yilning 1-sonida katta bir maqola bostirib, o'z prinsiplarini himoya qilib chiqqan.

U avvalida “harfiyan bo‘lmasada, harfiyan tarjimaga yaqinroq bir uslubda tarjima qiluv tarafdori” bo‘lganligini eslatadi (birinchi namunasi). Bu usulni tanlashi uni sevishidan bo‘lmay, balki asarni “tarjima va tafennri zo‘r bir tafovut bila fahm etadigan chekka uezdlardagi turli sheva va lahjada so‘zlashuvchi keng omma saviyasi, tushunchasiga moslashtirish maqsadida shu usulni ixtiyor etgan: “tuban va so‘nggi sinfnng xotirin rioyasi uchungina xarfiyaga yaqin bir uslub birga tarjima etmoqni loyiq ko‘rdim”.

Buning uchun ba’zi forscha-arabcha biluvchilar va musulmon studentlarga tarjimasi ma’qul bo‘lmasa ham, o‘z prinsipidan qaytmagan. U tatar xalq tilining o‘ziga xos tomonlarini e’tiborga olishii qayta-qayta uqtirdi. Mugarjim Olimxon Idrisiy usulini ham “harfiyaga yaqin bir uslub” deb atab, uning namunasi o‘zinikidan jumla va so‘zlarni ikki-uch baravar orttirib tarjima qilganligi za “tafsnr bilalzam (tafsir ustiga tafsir) [11] va tarjima bilal ma’ni (ma’ni ustiga tarjima) va izoh bilan mazmunga” (izoh ustiga izoh) boyligi bilan farq qilajagini ko‘rsatadi. Uning yozishicha, Olimxon Idrisiyning ana shu uslubni dasturamal qilib bajargan tarjimasini (ikkinchi namuna) “Sho‘ro” o‘quvchilari yaxshi kutib olgan.

Xulosa. Keltirilgan faktlar o‘tgan asr boshlarida badiiy tarjimaga, xususan, Sa’diy “Guliston”ining turkiy tillarga tarjimasi masalasiga naqadar jiddiy yondashilganini ko‘rsatadi. Asar tarjimasi borasida yuqorida

keltirilgan ishlarning deyarli barchasi o‘z fikrlariga sodiq qolganlar. Biz ushbu kichik tadqiqotimizda ularning mulohazalarini kuzatish orqali tahlilga tortdik. Bu borada tarjimonlar va tarjima asarlari to‘g‘risida maqolalar e’lon qilgan birdan-bir matbuot “Sho‘ro” jurnalining nihoyatda katta ahamiyatini ta’kidlash joizdir. Bu jurnal o’sha davrda Rossiyadagi turkiy xalqlar uchun umumiy ilmiy jurnal edi.

FOYDALANILGAN

ADABIYOTLAR:

1. Комилов Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати: Филол. фанлари номз...дисс... – Тошкент: 1970. – Б.
2. Ханнанова Г.М. К истории переводов “Гулистана” Саади на татарский язык // Грамота, 2014. № 9 (39): в 2-х ч. Ч. I. С. 192-194. ISSN 1997-2911.
3. Ханнанова Г.М. К истории переводов “Гулистана” Саади на татарский язык // Грамота, 2014. № 9 (39): в 2-х ч. Ч. I. – С. 192
4. Idrisi O. “Guliston” tarjumasini munosabati ila// Sho‘ro. 1914. № 12. – S. 363-364.
5. Badriddin N. “Guliston” tarjimasini munosabati ila// Sho‘ro. 1914. № 12. – B. 364-365.
6. Ramiyev S. “Guliston” tarjimasini haqinda // Sho‘ro. 1914. № 19. – B. 594-595.
7. Sodiq. “Guliston” tarjimasini haqinda //1915. № 3.
8. Zavqiy. “Guliston”ni tarjima qiluvchig‘a // Sho‘ro. 1915. № 3. – B. 2
9. Badriddin N. “Guliston” tarjimasini munosabati ila// Sho‘ro. 1914. № 12. – B. 364-365.
10. Саид Рамиев, “Гулистон” таржимаси ҳақинда // Шўро, 1914, 19-сон.
11. Sho‘ro. 1914. – B. 691.

